

"O`ZSANOATQURILISHBANK" ATBDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH VA UNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Salimov Yigitali

Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13957144>

Hozirgi vaqtda banklar faoliyatiga tobora ko‘proq ahamiyat berilmoqda, chunki ular asosiy moliya institutlari bo‘lib, ularning yordamida barcha kapitalni jalb qilish va taqsimlash asosida vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larni to‘plash va joylashtirish mavjud. Shunga asoslanib, tijorat banklarining bank siyosatini eng muhim tarkibiy qismi resurs bazasini shakllantirish depozit siyosati hisoblanib, uning eng katta qismi depozit operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida shakllanadi. Bankning barqarorligi va to‘g‘ri rivojlanishini ta’minlovchi omillardan biri sifatida uni yetarlicha ishlab chiqish hamda iqtisodiy maqsadga muvofiqligiga e’tiborning ortishi hozirgi kunda dolzarbligini belgilaydi.

Tijorat bankida o‘z depozit siyosatini ishlab chiqish, avvalo, bank resurslarini shakllantirish bo‘yicha bank faoliyatini rivojlantirish vazifalarini, mazmunini belgilash, shuningdek ularni rejalashtirish va rivojlantirishdan iborat chora- tadbirlar majmuuni ishlab chiqishni nazarda tutadi hamda tartibga soladi. Depozit faoliyati - bu barcha depozit operatsiyalari asos va poydevor bo‘lib, uni “banklarning yuridik va jismoniy shaxslardan mablag‘larini ma’lum muddat yoki talab bo‘yicha depozitlarga jalb qilish bo‘yicha operatsiyalari” deb tushunish kerak.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida quydagilarni ta’kidlab o‘tdi “bank tizimini isloh qilish, Markaziy bank moliya bozorida raqobatni oshirish maqsadida 1 fevralga qadar bank bo‘limgan kredit tashkilotlari to‘g‘risida qonun loyihasini kiritish, mamlakatimizda islam moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy bazani yaratish vaqt(soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi”¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta’minalash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchlilagini mustahkamlash bo‘yicha aniq vazifalarning qo‘yilganligi² 2 tijorat banklari resurslarini shakllantirishning asosiy manbai bo‘lgan depozit operatsiyalarini rivojlantirish va ularning buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalasini mustaqil ob’ekt sifatida tadqiq qilish zaruratiniz yuzaga keltiradi va ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Prof O.I.Lavrushining fikriga ko‘ra, tijorat banklari resurslarining eng barqaror qismi bo‘lib muddatli depozitlar va jamg‘arma omonatlari hisoblanadi va ular quyidagi muhim xususiyatlarga egadir 3:

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi O‘za.O‘z

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi PF4947- sonli farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – № 6 (766). – 32-b

³ Банковское дело. Под ред. Лаврушина О.И. – М.: Финансы и статистика, 2004. – С. 88-89

-hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun foydalanilmaydi va ularga to'lov hujjatlari yozilmaydi;

-muddatli va jamg'arma depozit hisobraqamlaridagi mablag'larning aylanish tezligi past;

-qat'iy belgilangan foiz to'lanadi, Markaziy bank zarur hollarda foiz stavkalarining yuqori chegarasini tartibga solishi mumkin;

-tijorat bankini depozitni olish to'g'risida oldindan ogohlantirish tartibi mavjud;

-nisbatan past majburiy zahira stavkalari qo'llaniladi.

O.I. Lavrushin tomonidan muddatli depozitlar va jamg'arma omonatlar bo'yicha e'tirof etilgan xususiyatlarga qo'shilgan holda, yana bir qator xususiyatlarning mavjudligini qayd etmoqchimiz. Jumladan:

-naqd pullarning banklardan tashqari aylanmasini qisqartirish imkonini beradi;

-tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar uchun garov ta'minoti vazifasini bajarishi mumkin, buning natijasida kredit quyilmalari hajmi oshadi, kredit riski ma'lum darajada kamayadi.

Prof. V.M.Usoskinning fikriga ko'ra, transaksion depozitlardan resurs sifatida foydalanish tijorat banklarining likvidliligiga jiddiy ziyon yetkazadi. Shu sababli, Glass-Stigoll qonuniga asosan 1933 yilda transaksion depozitlarga foiz to'lashning ta'qiqanishi oqilona tadbir hisoblanadi. Lekin muddatli va jamg'arma depozit hisobraqamlariga tijorat banklari tomonidan to'lanadigan foiz stavkalarining yuqori chegarasining belgilanishi tijorat banklarining depozit bazasiga salbiy ta'sir qiladi⁴.

S.Vayn tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, aholining muddatli omonatlar tijorat banklari resurs bazasini diversifikatsiya qilishning birlamchi vositasi hisoblanadi [5].

S.Vaynning ushbu xulosasi katta hajmdagi statistik va amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi sababli ishonchli hisoblanadi.

I. Fisherning fikriga ko'ra, aholining muddatli omonatlarini banklarga jalb etishda omonatlarning diskontlangan qiymati va ularga hisoblangan foizlarning qiymatini o'zgarishi muhim o'rinn tutadi[6].

U omonatlar bo'yicha foizning nominal va real stavkasini farqlab, birinchisi, inflyatsiya ta'sirida bo'lishi, ikkinchisi inflyatsiyadan xoli etilishi zarurligini aytib o'tdi.

F. Mishkinning fikriga ko'ra, aholining pul mablag'larini bir qismini tijorat banklariga depozit sifatida joylashtirishi yoki naqd pul ko'rinishida saqlashi bevosita bank tizimiga bo'lgan ishonchga bog'liq. U ta'kidlaydiki, insonlar boshqa fuqarolar va tashkilotlardan emas, balki aynan Federal zaxiradan qarz tilxatlarini olishni afzal ko'rishadi, chunki, FZT banknotalari – tan olingan muomala vositaladir, ya'ni ular to'lov vositasi sifatida qabul qilinadi va shuning uchun pul sifatida amal qiladi. Afsuski, boshqa hech kim insonlarni uning qarz tilxatlari u yozilgan qog'oz bo'lagidan ortiq turishiga ishontira olmaydi⁵.

AQShlik taniqli iqtisodchi olim J. Sinkining xulosasiga ko'ra, aholining pul mablag'larini tijorat banklarining depozit hisobraqamlariga jalb etishda muddatli jamg'arma depozitlarining foiz

⁴ Усоскин В.М. Современный коммерческий банк. – М.: ИПЦ «Вазар-Ферро», 1994. - С. 106-109.

⁵ Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. 7-е изд. Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д. Вилямс», 2013. – С. 442-443.

stavkalari bilan transaksion depozitlarning barqaror qoldig‘iga to‘lanadigan foiz stavkalari o‘rtasidagi farq asosiy o‘rin tutadi [8].

J. Sinkining ushbu ilmiy xulosasi O‘zbekiston bank amaliyoti uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, respublikamiz banklarida mijozlarning talab qilib olinadigan depozitlarining barqaror qoldig‘idan, ular bilan kelishgan holda, resurs sifatida foydalanish amaliyoti mavjud emas. Balki, talab qilib olinadigan depozitlardan mijozlarning o‘zlaridan so‘ramasdan resurs sifatida foydalanilmoqda. Bu esa, banklarning likvidliligiga nisbatan salbiy ta’sirni yuzaga keltirishi mumkin.

Fikrimizcha, V.Usoskin bu yerda haq. Buning sababi shundaki, muddatli va jamg‘arma depozitlari foiz stavkalarining yuqori chegarasini belgilanishi tijorat banklarini depozitlar jalb qilish imkoniyatini cheklab qo‘yishi mumkin.

A.M. Tavasievning fikriga ko‘ra, aholi omonatlarining banklarga jalb etish ko‘lamini kengaytirish bevosita bank tizimidagi raqobatga bog‘liq.

R. Olxovaning fikriga ko‘ra, aholining muddatli omonatlari yuridik shaxslarning muddatli depozitlariga nisbatan arzonligi va bankda uzoqroq muddat saqlanib turishi bilan farqlanadi⁶.

Bir guruh iqtisodchi olimlar aholining ixtiyoridagi vaqtinchalik pul mablag‘larini bank muassasalariga jalb etishda milliy valyutaning barqarorligi va inflyatsiya darajasini muhim rol o‘ynashini e’tirof etadilar.

Ularning fikriga ko‘ra, milliy valyutaning barqarorligini ta’minlanmaganligi milliy valyutaga bo‘lgan ishonchga putur yetkazadi va buning natijasida aholining banklarga milliy valyutada omonat qo‘yishga bo‘lgan qiziqishi pasayadi.

Shuningdek, ular inflyatsiya darajasining yuqori bo‘lishini ham aholining pul mablag‘larini bank muassasalariga jalb etilishi yo‘lidagi jiddiy to‘siqlardan biri sifatida e’tirof etishadi.

Rivojlangan davlatlarning, xususan, AQSh, Yaponiya va Yevropa Ittifoqining qator davlatlarida jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari tijorat banklari depozit bazasining umumiy hajmida yuqori salmoqni egallaydi. Olib borilgan qator ilmiy tadqiqotlarning natijalari shuni ko‘rsatdiki, jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari yuridik shaxslarning muddatli depozitlariga nisbatan arzon va uzoq muddatli resurs manbai hisoblanadi⁷.

V. Borovkova va S. Murashovlarning fikriga ko‘ra, aholi omonatlarini banklarga jalb etishda ularga taklif etiladigan innovatsion depozit xizmatlari muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham aholining ixtiyoridagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini bank muassasalariga jalb etish masalasi ilmiy jihatdan tadqiq qilingan va tegishli ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Prof. Sh. Abdullaevning fikriga ko‘ra, bank xizmatlarini takomillashtirish aholining pul mablag‘larini bank muassasalariga jalb etishning birlamchi zaruriy sharti hisoblanadi.

Haqiqatdan ham respublikamiz banklarida moliyaviy xizmatlarni takomillashtirish bilan bog‘liq qator muammolar mavjud. Xususan, innovatsion xizmatlarni taklif qilish talab darajasida emas.

⁶ Олхова Р. Ресурсы коммерческого банка и его капитальная база. Банковское дело. Под ред. Проф. О.И.Лаврушина. – М.КНОРУС, 2016. – С.222-223.

⁷ Боровкова В.А., Мурашов С.В. Основы теории финансов и кредитов. – СПб.: Питер, 2004. – 224 с.

Mazkur maqolada tijorat banklari tomonidan depozit siyosatining amalga oshirishning joriy holati tahlil qilinib, bank resurs bazasining barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan.

Tahlil jarayonida ilmiy abstraksiyalash, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar va o'rganishlar asosida mamlakatimiz tijorat banklari depozit siyosatini samarali amaliyatga joriy etish va iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirishga quyidagi holatlar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda:

Tijorat banklari va ularning bo'limlarini hududlarda joylashuvi depozit mablag'larni yetarli darajada jalb qilish imkoniyatini beradi. Biroq, mamlakatdagi iqtisodiy holat va uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivoji tijorat banklari depozit siyosatida o'zining aksini topadi. Depozit mablag'larini jalb qilishda va uning hajmiga hududda istiqomat qilayotgan aholi turmush darajasining pasayishi, ishsizlik darajasining ortishi, hududning dotatsiya hisobida turishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Markaziy bankning pul-kredit siyosati. Markaziy bankning pul-kredit instrumentlari o'zining iqtisodiy samarasini yetarli darajada bermayapti. Shu bilan birga, tijorat banklari depozit siyosati samaradorligiga bevosita kuchli ta'sir etadigan bozor mexanizmlaridan hisoblanadi.

Xalqaro va mahalliy iqtisodiy-siyosiy vaziyat. Mamlakatda xalqaro va mahalliy vaziyatning barqarorligi tijorat banklari depozit siyosatida o'zining aksini topadi. Xususan, xalqaro iqtisodiy va siyosat vaziyatning barqarorligi mamlakatimiz tijorat banklari bilan iqtisodiy aloqalarni o'rnatish imkoniyatini va ularning depozit mablag'lari tarkibida xorijiy valyutalarda resurslarni shakllantirish imkoniyatini beradi. Ta'kidlash joizki, respublikamiz tijorat banklari depozitlarni jalb qilish jarayoni keyingi yillarda faollashmoqda, shu jumladan xorijiy valyutalarda jalb qilingan depozitlarning ham salmog'i anchagina yuqoridir.

Milliy valyutaning barqarorligi va uning sotib olish qobiliyatining yuqoriligi. Milliy valyutaning barqarorligi va uning sotib olish qibiliyatining pasayishi tijorat banklari depozit siyosatining foiz stavkasiga, rentabellik darajasiga, omonatchilarining iqtisodiy manfaatdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, milliy valyutaning inflyatsiya darjasasi yuqori bo'lgan sharoitda omonatchilarining uzoq muddatli depozitlarni banklarga jamg'arish manfaatdorligi pasayadi.

Omonatlarning kafolatlanganligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarida yuqori risk darjasasi mavjudligi ularni iqtisodiy inqirozga uchrash ehtimoli juda katta bo'ladi. Mana shu holat omonatchilarini banklarga mablag'larni jalb etish bo'yicha ikkilanish holatining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Shu bois, bank omonatlarini kafolatlash masalasiga alohida e'tibor berilishi talab etiladi. Shu jihatdan, fikrimizcha, mamlakatimiz tijorat banklari depozitlari tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlar ulushini keskin dajarada oshirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Amalga oshirilgan tahlillar va o'rganishlar asosida mamlakatimiz tijorat banklari depozit siyosatini ishlab chiqish va uni amaliyatga joriy etishda quyidagi asosiy masalalarga e'tibor qaratish lozim:

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari o'rtasida moliya va fond bozorlaridan mablag'larni jalb qilishda raqobat muhiti vujudga keladi. Bunday raqobatni yutib chiqishning asosiy mezonlaridan biri omonatchilarini yo'qotmaslik maqsadida ularning omonatlari bo'yicha to'lanadigan foiz to'lovlarini oshirib borish lozim bo'ladi. Bu o'z navbatida bankning

rentabellik darajasiga ta'sir qiladi, ushbu ta'sirning salbiy natijalarni keltirib chiqarmaslik holatlarini ta'minlanishi bank depozit siyosati raqobatbardoshligini anglatadi;

Shuningdek, joriy yilning 10 oyida yuzaga kelgan milliy valyutaning sezilarli darajada devalvatsiyasi va qisqa muddatli inflyatsion kutilmalarning o'sishiga qaramay, milliy valyutadagi depozitlarning keskin kamayishi yoki tarkibiy o'zgarishlari ro'y bermadi. Bunda, o'sish sur'ati pasaygan bo'lsa-da, depozitlarning ijobiy dinamikasi saqlab qolindi.

Bu, birinchi navbatda, tijorat banklarining milliy valyuta kursi qadrsizlanishiga bozor tamoyillaridan kelib chiqib, milliy valyutadagi omonatlar

bo'yicha foiz stavkalarini oshirish orqali munosabat bildirganliklari bilan izohlanadi.

O'z navbatida, jismoniy shaxslarning xorijiy valyutadagi muddatli va jamg'arma depozitlari hajmi devalvatsion kutilmalar hisobiga avgust oyida 12,7 foizga oshib, sentyabr oyida valyuta kursi barqarorlashganligi sababli 2,9 foizlik pasaydi va oktyabr oyida 2,9 foizlik o'sish kuzatilgan.

Jismoniy shaxslardan jalb etilayotgan xorijiy valyutadagi omonatlar bo'yicha foiz stavkalarining pasayib borishi ma'lum jihatdan aholi ixtiyoridagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni iqtisodiyotning real sektoridan "yashirin iqtisodiyot" ga oqib o'tishiga sababchi bo'ladi. Yuqorida qayd etilganidek, mijozlarning bank sektoriga bo'lgan ishonchi birinchi navbatda uzoq muddatli davrda xizmatlarning narxining saqlanib qolishi bilan belgilanadi. Demak, foiz stavkalarining tezkor yoki fundamental omillar ta'sirisiz o'zgartirilishiga depozit siyosatining samaradorligini pasaytiruvchi omil sifatida baholanishi zarur. Bundan tashqari, bunday holat koronavirus pandemiyasiga qarshi karantin choralarining davom ettirilishi paytida aholining vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini bank depozitlariga jalb etishga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish, shuningdek, koronavirus pandemiyasiga qarshi karantin choralarining kiritilishi natijasida yuzaga kelgan salbiy omillar ta'sirini yumshatish maqsadida quyidagi ilmiy takliflar shakllantirildi:

depozit siyosatini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etishda quyidagi asosiy masalalarga e'tibor qaratish lozim:

Tijorat banklari depozit siyosatida mijozlarga masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mobile ilovasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy muloqotsiz to'lov usullarini (QR-kod va NFC-texnologiyalari) joriy etish jarayonlarini faollashtirish depozit xizmatlarini amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, ilmiy maqolada taklif etilgan indikatorlar depozitlarni jalb etish muddatlari, shuningdek, omonatlarni muddatidan oldin qaytarib olish ehtimoli darajasini baholash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari ushbu indikatorlar bank passivlarini diversifikatsiyalash hamda depozitlarni barqaror resurs bazasiga transformatsiyalash jarayonlariga xizmat qiladi ATB "O'zsanoatqurilishbank" balansi 2014–2018 yillar davomida 373 783 mld. so'mdan 1 060 416 mln. so'mga yoki 283,7 foizga ko'paygan. Bank balansining oshib borishi mijozlarning depozit hisobvaraqlaridagi mablag'larning ko'payishi (ya'ni, 2014 yildagi 373 873 mln. so'mdan 2018 yilda 1 060 416 mln. so'mgacha yoki 283,6 foizga oshgan), ichki va tashqi manbalardan qarz mablag'larini jalb etish (2014 yildagi 6 932 mln. so'mdan 2018 yilda 765 094 mln. so'mgacha yoki

110 barobarga oshgan) va xususiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (2014 yildagi 166 690 mln.so'mdan 2018 yildagi 696 121 mln.so'mgacha yoki 417,6 foizga oshgan) hisobiga yuz bergan.

Tahlil etilayotgan davrda ATB “O’zsanoatqurilishbank” tomonidan mijozlarga taqdim etilgan kreditlar hajmi 2018 yil yakunida 2 393 587 mln. so‘mni tashkil etgan va 2014 yildagi nisbatan 375,6 foizga ko‘paygan. Bankning joriy va uzoq muddatli likvidlilik pozitsiyasini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan naqd aktivlar hajmi 2019 yil 1 yanvar holatiga 282 249 mlrd.so‘mga teng bo‘lgan. jadval

ATB “O’zsanoatqurilishbank” balans ko‘rsatkichlari dinamikasi, (mln. so‘m va foizda)

Ko‘rsatkichlar	01.01.2015 yil	01.01.2016 yil	01.01.2017 yil	01.01.2018 yil	01.01.2019 Yil
Bank balansi	790 712	1 116 326	1 333 645	1 807 253	2 942 920
Mijozlarning mablag‘lari (depozitlar)	373 783	693 379	930 186	971 354	1 060 416
Chiqarilgan qarz qimmatli qog‘ozlari	111 117	74 986	64 289	68 010	83 087
Olingan boshqa qarzlar	6 932	6 238	28 007	141 682	765 094
Xususiy capital	166 690	183 387	187 880	602 397	696 121
Berilgan kreditlar	637 192	801 220	1 004 856	1 197 689	2 393 587
Naqd aktivlar	93 110	233 373	236 938	372 664	282 249

Depozitlarning bank balansidagi salmog‘i	47,3	62,1	69,7	53,7	36,1
Chiqarilgan qarz qimmatli qog‘ozlarining bank balansidagi salmog‘i	14,1	6,7	4,8	3,7	2,8
Olingan qarzlarning bank balansidagi salmog‘i	0,9	0,6	2,1	7,8	25,9
Xususiy kapitalning bank balansidagi salmog‘i	21,1	16,4	14,1	33,3	23,6
Depozitlarning kreditlarga nisbati	56,6	86,5	92,6	81,1	44,3
Qarz mablag‘larining kreditlarga nisbati	1,1	0,8	2,8	11,8	31,9
Xususiy kapitalning kreditlarga nisbati	26,2	22,9	18,7	50,3	29,1
Qarz mablag‘larining xususiy kapitalga nisbati	4,2	3,4	14,9	23,5	109,9

ATB “O’zsanoatqurilishbank” balansida yuz bergan o‘zgarishlarni aniqlash uchun bir qator nisbiy ko‘rsatkichlar hisoblab chiqildi. Mazkur nisbiy ko‘rsatkichlarning birinchi guruhi bevosita resurs bazasidagi o‘zgarishlarni ifodalasa, ikkinchi guruhi ichki va tashqi kredit defolti risklari darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaathomasi O‘za.O‘z
2. Козлова Е.П ., Николаевна Е.Н. Бухгалтерский учет в коммерческих банках. -М : Ф и С. 2 003 г.
3. Парфенов К. Банковский учет.-М .:, ООО «Парфенов.ру». 2 0 0 4 г.
4. Курсов В .Н ., Яковлев Г А. Бухгалтерский учет в коммерческом банке: новые типовые бухгалтерские проводки операций банка. Учеб. пос. -М .: И Н ФРА-М , 2 004